

## DORIVOR ISSOP (HYSSOPUS OFFICINALIS) O'SIMLIKNI URUG'IDAN YETISHTIRILGAN XOLDA O'SISH VA RIVOJLANISHINI O'RGANISH

Rustamova Dildora Umarbek qizi  
Nizomova Maqsuda Usmonqulovna  
(Toshkent Davlat Agrar Universiteti)

**Annotatsiya.** *Dorivor issop (Hyssopus officinalis) o'simlikni introduksiya sharoitda ko'paytirish usullari, o'sishi, barglarni, ildiz tizimini paydo bo'lishi, g'unchalarning xosil bo'lish va gullash jarayonlari o'rganildi.*

**Kalit so'zlar.** *Dorivor issop, introduksiya, vegetatsiya, urug'pallabarg, ildiz, barg, gul, mavsumiy rivojlanish,*

**Abstract.** *Hyssopus officinalis propagation methods, growth, leaves, emergence of root system, formation of buds and flowering process of hyssopus officinalis were studied.*

**Keywords.** *Hyssopus officinalis, introduction, vegetation, seed, root, leaf, flower, seasonal development.*

### KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 26 noyabrdagi "Dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlash, ularning urug'chiligini yo'lga qo'yishni rivojlantirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar ko'lamini kengaytirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4901-son qarorida Respublika hududlarida dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlashga doir ilmiy tadqiqotlarning yagona bazasini yaratish, xorijiy davlatlarning ilg'or ilmiy ishlanmalarini o'rganib borish, yetakchi ilmiy muassasalar bilan hamkorlik o'rnatish hamda zamonaviy texnologiyalar, ilmiy ishlanmalarni respublikaga joriy etish va mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanishni kuchaytirish masalalariga belgilab berilgan [1].

Ilmiy izlanish tadqiqotni obykti Dorivor issop (*Hyssopus officinalis*) labguldoshlar (*Lamiaceae*) oilasiga mansub. Keng tarqalgan o'simlik dorivor issop yoki oddiy issop (*Hyssopus officinalis* L) Yevropa, yuqori va quyi oqim Qora dengiz mintaqasida, Qrim, Kavkaz, Markaziy Osiyo va Oltoyda tog' yonbag'irlarida toshlar, dashtlarda o'sadi [2].



1-rasm. Tadqiqot obykti Dorivor issop (*Hyssopus officinalis*).

Issop ko'p yillik o't o'simlik bo'lib, yoqimli hidga ega. Poyasi tekis, yog'ochsimon, shoxlangan. Barglari nayzasimon, 2-4 sm uzunlikdagi, yupqa tuklar bilan qoplangan, ularning yuzasida uchuvchi yog' hosil qiluvchi bezlar bor.

Gullarning rangi ko'k, pushti, (kamdan-kam hollarda) oq yoki binafsha rang bo'ladi ular yuqori barglarning pastki qismidagi qo'ltiq ostida to'planib, tepada boshqoq hosil qiladi. Gullari germafrodit; (hasharotlar asosan asalarilar) tomonidan changlanadi.

Gullash davri o'zgarib turadi may oyining o'rtalaridan iyungacha (o'simlikning 2-yilgi hosili), oktyabrgadan-noyabr (sovuq tushganda). U urug'dan qalamchalaridan ko'paytiriladi. O'simlik quyoshli, issiq iqlimni va yaxshi qurigan tuproqni afzal ko'radi (gil, qum va boshqalar).

Issop birinchi yilida gullaydi, lekin ommaviy gullash davri ikkinchi yildan boshlanadi. Mevalar avgust-sentyabr oylarida pishadi. Mevasi 4 ta yong'oqdan iborat, issop urug'i cho'zinchoq tuxumsimon. Urug'lari 4-5 yilgacha yashovchanligini saqlaydi.[3]

**Tadqiqot obyekti va metodologiyasi.** Tadqiqot obyekti Dorivor issop (*Hyssopus officinalis*) labguldoshlar (Lamiaceae) oilasiga mansub ko'p yillik o'simlik hisoblanadi.

Tajriba Toshkent davlat agrar universiteti qoshidagi Toshkent viloyati Qibray tumanida joylashgan "Qishloq xo'jaligida innovatsion ishlanmalar va maslahat markazi" DUK da o'rganilmoqda. O'simlikning biomorfologik xususiyatlari Cheripanov Serebryakov,

O'simliklarni mavsumiy rivojlanishi Beydeman, Zaysev usullaridan foydalanildi. Bunda o'simlikning o'sishi, barglarni, ildiz paydo bo'lishi ko'payishi, rivojlanish, gullash kabi jarayonlar kuzatib borildi.

Tajriba uchun variantlarida introduksion chidamlilikni o'rganib maqbul variant tanlaniladi, bunda introduksion chidamlilikni aniqlashga asoslangan metod ( Trulevich 1991, To'xtaev 2009) va o'simliklar reproduktiv strategiyalarini tahlil qilish metodi ( Guseynova, 2011) dan foydalanilgan holda introduksion baholash ishlari olib boriladi.[4]

**Tadqiqot natijalar.** Tajriba Toshkent davlat agrar universiteti qoshidagi Toshkent viloyati Qibray tumanida joylashgan "Qishloq xo'jaligida innovatsion ishlanmalar va maslahat markazi" DUK da olib borildi.

Kuzatish natijasida Dorivor issop (*Hyssopus officinalis*) o'simligini urug'idan yetishtirilgan xolda o'sishi va rivojlanish o'rganildi.

Issop tuproqni tanlamaydigan o'simlik. Mexanik tarkibi yengil qumli tuproqlarda juda yaxshi o'sadi. Qurg'oqchilik, issiqlik va sovuqqa chidamli. Biroq, ba'zan qish juda qattiq bo'lgan hududlarda sovuq zarar berishi mumkin.

Aniq ma'lumotlarga ega bo'lish uchun urug'lar yilning 2022 yil Toshkent davlat agrar universiteti qoshidagi Toshkent viloyati Qibray tumanida joylashgan "Qishloq xo'jaligida innovatsion ishlanmalar va maslahat markazi" DUK ga mart-aprel oylari ekildi. Bahorda mart oyining oxirgi o'n kunligida ya'ni tuproqning ustki 12 sm qatlami ishlov berishga kelgan davrda tuproqning namlik zaxirasini saqlash maqsadida boronalandi. Ekishdan oldin ham takroriy boronlash tadbirini amalga oshirish mumkin, bizda erta bahorgi

boronalashdan keyin yog'ingarchilik bo'lganligi uchun to'g'ridan-to'g'ri ekishdan oldin baronalash o'tkazildi.

Dorivor issop (*Hyssopus officinalis*) Urug'lar dala sharoitida mart oyining ikkinchi dekadasida havo harorati 18-20 gradus isiganda 0,5 sm qator oralig'i 50-60 sm qilib ekildi.

Oradan 10-12 kun o'tgach maysalarda 2-3 tadan chin barg hosil bo'ldi va o'simlik oralarini yumshatildi begona o'tlardan tozalandi. Bahor oylaridagi yog'ingarchilik natijasida issop ekilgan maydonlarda qatqaloqlar paydo bo'lishi bilan o'simlik oralari yumshatiladi va shu bilan birga yagana qilinib, har bir tupda 20-30 sm uzunlikda 2-3 ta dan o'simlik qoldirildi. Ekilgan o'simliklar iyun oyining oxirlarida shonalalab, iyulda gullay boshladi. Vegetatsiya davomida dorivor issop havo haroratini hisobga olgan holda 6-8 marta sug'oriladi.

#### FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. 2020 yil 26 noyabrdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlash, ularning urug'chiligini yo'lga qo'yishni rivojlantirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar ko'lamini kengaytirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4901-son qarori.

2. Калиниченко Л. В. Иссоп: жемчужина Средиземноморья. // «Цветоводство» – 2012.

3. O'.Ahmedov, A.Ergashev, A.Abzalov, M.Yo'lchiyeva, S.Azimboyev "Dorivor o'simliklarni yetishtirish texnologiyasi". Toshkent-2008.

4. Belolipov I.B. To'xtaev B. Yo., Qarshiboev H.Q. "O'simliklar introduksiyasi" fanidan ilmiy- tadqiqot ishlarini o'tkazishga oid metodik ko'rsatmalar.(to'ldirilgan 2-nashr).- Guliston,2015.-32b.